

O‘ZBEKISTONDA TERICHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Kadirova Maraljan Matyakubovna

BuxDU, “Yashil iqtisodiyot va agrobiznes” kafedrasida dotsenti, PhD.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida terichilik sanoatini rivojlantirishning dolzarb masalalari, mavjud imkoniyatlar hamda istiqbollari yoritilgan. Terini qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish orqali milliy iqtisodiyotga qo‘shiladigan hissani ko‘paytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, terichilik sanoatida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, mahalliy brendlarni rivojlantirish hamda ichki bozorni to‘ldirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, charm va poyabzal ishlab chiqarish, texnologiya, eksport, diversifikatsiya, logistika, infratuzilma, marketing.

Аннотация

В статье рассматриваются актуальные проблемы, возможности и перспективы развития кожевенной промышленности в Республике Узбекистан. Большое значение имеет увеличение вклада в экономику страны за счёт переработки кожи, производства готовой продукции и наращивания экспортного потенциала. Также обозначены перспективные направления привлечения иностранных инвестиций в кожевенную промышленность, развития местных брендов и наполнения внутреннего рынка.

Ключевые слова: сельское хозяйство, производство кожи и обуви, технологии, экспорт, диверсификация, логистика, инфраструктура, маркетинг.

Abstract

This article discusses the current issues, current opportunities and prospects for the development of the leather industry in the Republic of Uzbekistan. Increasing the contribution to the national economy through leather processing, production of finished products and increasing export potential is of great importance. Also, promising areas for attracting foreign investment in the leather industry, developing local brands and filling the domestic market are indicated.

Keywords: agriculture, leather and footwear production, technology, export, diversification, logistics, infrastructure, marketing.

KIRISH

Qishloq xo‘jaligida teri ishlab chiqarishni rivojlantirish omillarini tahlil qilish O‘zbekiston uchun ayniqsa dolzarbdir. Qishloq xo‘jaligining chorvachilik sohasi mamlakat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda teri ishlab chiqarish uchun zarur xomashyo resurslarini ta‘minlaydigan mahalliy chorva mollarining katta populyatsiyasi mavjud. Teri mahsulotlariga global talab ortib borayotganini hisobga olganda, ushbu sanoatning ahamiyati ham oshib bormoqda. Ushbu mavzuni o‘rganish O‘zbekistonda sohani takomillashtirish va rivojlantirish uchun mavjud potensial

imkoniyatlarni ochib beradi. Shuningdek, bu jarayon ishlab chiqarishni optimallashtirish uchun tuzatishni talab qiladigan kamchiliklar hamda muammolarni aniqlashga yordam beradi. Umuman olganda, ushbu mavzuning O‘zbekiston uchun dolzarbligi charm ishlab chiqarishning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatidan kelib chiqadi.

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda agrar sektor va uning asosiy tarkibiy qismi hisoblangan qishloq xo‘jaligining taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning rivoji ko‘p jihatdan qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlar samarasiga bog‘liq. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligini isloh etish, qishloqlarda mulkdorlar sinfini shakllantirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari ishlab chiqarishini ko‘paytirish va qishloq aholisining moddiy farovonligini oshirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Teri ishlab chiqarish qishloq xo‘jaligining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, dunyoning ko‘plab mamlakatlariga, jumladan O‘zbekiston iqtisodiyotiga ham muhim ta‘sir ko‘rsatadi. Qishloq xo‘jaligida charm ishlab chiqarishning o‘rni va ahamiyatini hisobga olgan holda, uning rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish va tahlil qilish zarur. Bunday omillarga xomashyoning mavjudligi, uni qayta ishlashda qo‘llaniladigan texnologiyalar, siyosiy qarorlar hamda jahon bozoridagi tendensiyalar kiradi. Ushbu omillarni o‘rganish o‘sish va rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, shuningdek, hal etilishi zarur bo‘lgan muammolarni belgilashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Diego Navarro, Jianxui Vu, Vey Lin, Pere Fullana-i-Palmer va Rita Puig “Hayot aylanishini baholash (LCA)” deb nomlangan ilmiy maqolasida LCA tadqiqotlari haqida umumiy ma‘lumotlar berilgan bo‘lib, charm ishlab chiqarishning atrof-muhitga ta‘sirini aniqlash uchun qo‘llaniladigan ilmiy metodologiyani joriy etish hamda charm sanoatiga o‘z texnologiyalarini optimallashtirish yoki takomillashtirish zarurligi haqida fikrlar va tahlillar keltirilgan [1]. A.M. Dubinovskiy va A.V. Kulikovalarning ilmiy ishlarida charm sanoati korxonalarini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini o‘rganish bilan bog‘liq nazariy hamda uslubiy qoidalar ishlab chiqilgan [2,3]. A.V. Kolovay esa zamonaviy bozor sharoitida charm va poyabzal ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish usullarini tahlil qilgan [4].

Dr. K. Thiripurasundari va C. Ponsakthisuryaning ilmiy maqolasida Hindistonda charm sanoati uchun o‘sib borayotgan imkoniyatlar o‘rganilgan. Unda qo‘l sumkalari, poyabzal va charm kiyimlar kabi mahsulotlar charm sanoatida eksportning eng katta o‘sish salohiyatiga ega ekani, eksport yo‘nalishida sanoat qoniqarli taraqqiyotga erishayotgani, qo‘shma korxonalar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar Hindiston charm sanoatini rivojlantirishga xizmat qilayotgani, hukumat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordamning ahamiyati yuqori ekani hamda kelgusi yillarda Hindiston charm sanoati istiqbollari ijobiy natijalarga olib kelishi ta‘kidlangan [5].

Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, teri ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha Hindiston Xitoy va Italiyadan keyin uchinchi o‘rinni egallaydi. Hindiston charm sanoati jahon bozorida katta ulushga ega bo‘lib, poyabzal, sumka, kiyim-kechak va

aksesuarlarni o'z ichiga olgan turli xil charm buyumlar ishlab chiqarish bilan mashhur. 2022-yilda Hindistondan charm mahsulotlari eksporti taxminan 6,4 milliard AQSh dollarini tashkil etgan.

Xitoy charm korxonalarini poyabzal, sumka, kiyim-kechak va aksessuarlarni o'z ichiga olgan turli mahsulotlarga ixtisoslashgan. 2022-yilda Xitoydan charm mahsulotlari eksporti taxminan 53 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Shu yili Italiyadan charm mahsulotlari eksporti esa 22 milliard yevroga teng bo'lgan. Italiya poyabzal, sumka, kiyim-kechak va aksessuarlarni o'z ichiga olgan yuqori sifatli charm buyumlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgani bilan ajralib turadi.

Fransiyaning charm sanoati ham iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biridir. Louis Vuitton, Chanel va Hermès kabi fransuz charm brendlari xalqaro miqyosda tan olingan. 2022-yilda Fransiya dan charm mahsulotlari eksporti 16 milliard yevrodan oshgan.

Braziliya charm sanoati esa katta hajmdagi ishlab chiqarish va eksport salohiyatiga ega. Mamlakat yuqori sifatli charm poyabzal hamda aksessuarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 2022-yilda Braziliyadan charm mahsulotlari eksporti taxminan 960 million AQSh dollarini tashkil etgan [6].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda terichilik sohasini rivojlantirish istiqbollari o'rganish, mavjud holatni tahlil qilish hamda sohaga oid muammolar va ularning yechimlarini aniqlash asosiy maqsad qilib belgilandi. Tadqiqot jarayonida tahlil (analiz) va sintez usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda O'zbekistonda teri sanoatini rivojlantirishga katta ehtiyoj mavjud. Mazkur sanoat charm va poyabzal mahsulotlarini ishlab chiqarishda muayyan yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, rivojlanish va o'sish uchun hali ham keng imkoniyatlar mavjud.

Teri ishlab chiqarishning asosiy ehtiyojlaridan biri — teri xomashyosini chuqur qayta ishlashdir. Hozirgi vaqtda xomashyoning katta qismi Xitoy, Eron va Turkiya kabi mamlakatlardan import qilinmoqda. Teri ishlab chiqarish uchun mahalliy xomashyo bazasini rivojlantirish importga bog'liqlikni kamaytiradi va mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun barqaror ta'minotni ta'minlaydi.

Shuningdek, poyabzal korxonalarini modernizatsiya qilish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur. Bu mahsulot unumdorligi va sifatini oshiradi, shuningdek, mahsulot turlarini kengaytirish imkonini beradi. Ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va raqamlashtirish kabi yangi texnologiyalarni rivojlantirish sanoatning jahon bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, mahalliy mahsulot va xomashyo ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun qulay sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Bunga moliyaviy yordam ko'rsatish, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, imtiyozlar berish va biznes yuritish tartib-qoidalarini soddalashtirish kiradi. Bunday chora-tadbirlar investorlarni

jalb etish, yangi ish o‘rinlari yaratish hamda charm mahsulotlari eksportini oshirish imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval.

O‘zbekistonda teri ishlab chiqarishni rivojlantirish omillari¹

№	Teri ishlab chiqarishni rivojlantirish omillari	Imkoniyatlari
1.	Xom-ashyo resurslari	O‘zbekiston teri ishlab chiqarish uchun katta xom-ashyo zaxiralariga ega. Xom-ashyoning asosiy manbalaridan biri yirik shoxli mollardir, chunki teri go‘sht sanoatining yon mahsuloti sifatida olinadi. Teri korxonalari, shuningdek, resurslardan maksimal darajada foydalanish va xarajatlarni kamaytirish uchun go‘sht mahsulotlarini ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanadilar.
2.	Texnologiya va sifat	O‘zbekiston charm sanoatiga yangi texnologiyalar va zamonaviy ishlab chiqarish usullarini joriy etishga intilmoqda. Bu terining sifatini va uni qayta ishlash jarayonini yaxshilashga yordam beradi, bu esa uni bozorda raqobatbardoshligini oshiradi. Terining yuqori sifati ichki va xalqaro bozorlarda o‘zbek teri mahsulotlariga bo‘lgan talabi yanada oshirishadi.
3.	Xalqaro talab	O‘zbekiston charm va charm buyumlar eksportchisi hisoblanadi. Teri va charm buyumlarga bo‘lgan xalqaro talab mamlakatda ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag‘batlantiradi va eksportning o‘sishi uchun imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekiston charm sanoati ko‘plab xalqaro ko‘rgazmalarda ishtirok etadi va global charm bozorining faol ishtirokchisi hisoblanadi.
4.	Moda sektorini rivojlantirish	O‘zbekiston o‘zining moda sanoatini rivojlantirishga intilmoqda va bu jarayonda teri ishlab chiqarish muhim rol o‘ynaydi. Sifatli o‘zbek terisi sumkalar, poyabzal va aksessuarlar kabi o‘ziga xos charm buyumlarni yaratish uchun muhim materialdir. Moda sektorining rivojlanishi o‘zbek terisiga bo‘lgan talabning oshishiga va ishlab chiqarishning o‘shishiga olib keladi.

Ushbu omillarning barchasi birgalikda O‘zbekistonda teri ishlab chiqarishni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada oshiradi. Qishloq xo‘jaligi, iqlim sharoiti, infratuzilma, iqtisodiyot, xomashyo resurslaridan foydalanish va texnologiya iqtisodiyotning ushbu sohasini rag‘batlantirish hamda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati va hajmini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda to‘qimachilik, tikuvchilik, charm va mo‘yna sanoati korxonalariga soliq imtiyozlari Prezidentning yengil sanoatni rivojlantirish hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi qarori asosida berilgan. Mazkur imtiyozlar 2020-yil 1-yanvardan boshlab amal qilmoqda. Shunga ko‘ra, tayyor kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari eksportining umumiy daromad hajmi kamida 60 foizni tashkil etgan korxonalar 2023-yil 1-yanvargacha mol-mulk solig‘ini to‘lashdan ozod etilgan.

Chorva mollarini so‘yish bo‘yicha zamonaviy avtomatlashtirilgan komplekslarni ishga tushirayotgan tashkilotlar va terini qayta ishlash korxonalari ham 2023-yil 1-yanvargacha yer solig‘ini to‘lashdan ozod qilingan.

To‘qimachilik, tikuvchilik-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘yna tarmoqlari korxonalaridan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha soliq solinadigan baza yetti yil

¹ Muallif ishlanmasi

davomida zamonaviy tozalash va kanalizatsiya inshootlarini qurish xarajatlari miqdoriga teng ulushlarda kamaytirildi.

“O‘zbekstilkum” va “O‘zbekstilkum” uyushmalarining xorijiy maslahatchilari O‘zbekistondagi manbalardan olingan daromadlari bo‘yicha belgilangan stavkaning 50 foizi miqdorida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ini to‘laydi. Shu bilan birga, 2021-yil 1-yanvardan boshlab charm yarim tayyor mahsulotlar va paxta iplarini eksport qilishda mahsulot qiymatining 10 foizi hamda eksport qilinadigan iplarning har bir kilogrammi uchun 0,01 AQSh dollari miqdorida yig‘imlar belgilangan.

Ushbu chora-tadbirlar mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash orqali yengil sanoatning rivojlanishini, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda eksport hajmini oshirishni rag‘batlantiradi. Qaror bilan 2020–2025-yillarda yuqori qo‘shilgan qiymatli to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘yna mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda eksport qilishning maqsadli ko‘rsatkichlari belgilangan.

Hujjat ilovasida qayd etilishicha, 2019-yil yakunlariga ko‘ra, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish hamda eksport hajmi 4,3 milliard AQSh dollarini, charm-poyabzal va mo‘yna mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi esa qariyb 350 million AQSh dollarini tashkil etgan. 2025-yilga kelib ushbu ishlab chiqarish hajmlarini mos ravishda 3,5 baravar va 6,4 baravar oshirish, ya‘ni 15 milliard hamda 2,2 milliard AQSh dollariga yetkazish rejalashtirilgan.

Buxoro viloyati misolida chorvachilik va parrandachilik sohalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tarmoqlarning rivojlanishi mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorligini ta‘minlashda katta ahamiyatga ega. Quyida 2010 va 2023-yillardagi ma‘lumotlar asosida ushbu sohalarning o‘shish dinamikasi tahlil qilinadi (1-rasm).



● Jami so‘yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar (tirik vaznda):
140.2


● Jami so‘yish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalar (tirik vaznda):
300.4

1-rasm. Buxoro viloyatida 2010-2023-yillarda go‘sh t yetishtirish uchun mol va parrandalar (tirik vaznda) hajmi¹

¹ Manba: <https://siat.stat.uz/>

2010-yilda Buxoro viloyatida soʻyish uchun yetishtirilgan mollar va parrandalarning jami tirik vazni 140,2 ming tonnani tashkil etgan. Oʻsha davrda, asosan, mayda shoxli mollar va qoramol yetishtirishga eʼtibor qaratilgan. Parrandachilik sektori nisbatan sust rivojlangan boʻlib, umumiy tirik vazn hajmida kichik ulushni egallagan. Koʻpchilik hollarda dehqon xoʻjaliklari va shaxsiy yordamchi xoʻjaliklarda yetishtirilgan chorva mahsulotlari ichki bozorga yoʻnaltirilgan.

2023-yilda esa ushbu koʻrsatkich 300,4 ming tonnaga yetgan, bu esa 2010-yilga nisbatan 2,1 baravar oʻsishni anglatadi. Natijada chorvachilik komplekslarining rivojlanishi natijasida yirik fermer xoʻjaliklari va agroklaster tizimi kengaytirildi. Parrandachilikda esa sezilarli oʻsish kuzatilib, zamonaviy parrandachilik korxonalari soni koʻpaydi. Bu esa umumiy tirik vaznning oʻsishiga bevosita taʼsir koʻrsatdi. Sunʼiy urugʻlantirish va zotdor chorvalarni koʻpaytirish choralari mahsulot sifatini yaxshilab, tirik vazn hajmining ortishiga xizmat qildi. Ichki hamda eksport bozorlarining kengayishi esa chorva mahsulotlariga boʻlgan talabning ortishiga va ishlab chiqarish hajmining oshishiga turtki boʻldi (2-rasm).



2-rasm. Buxoro va Navoiy viloyatlarida yetishtirilgan qorakoʻl terilarining hajmi¹

Buxoro va Navoiy viloyatlari qorakoʻlchilik bilan shugʻullanuvchi asosiy hududlardan hisoblanadi. Ushbu viloyatlarda qorakoʻl qoʻylarini yetishtirish hamda ulardan olinadigan teri hajmi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim koʻrsatkichlardan biridir. Mazkur tahlilda Buxoro va Navoiy viloyatlarida olingan qorakoʻl terilari hajmi solishtiriladi.


¹ Manba: <https://siat.stat.uz/>

2023-yilda Buxoro viloyatida jami 579,1 ming dona qorako‘l terisi olingan. Bu ko‘rsatkich viloyatning chorvachilik, ayniqsa qorako‘lchilik sohasida yuqori salohiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Buxoro viloyatida qorako‘lchilik uzoq yillik an‘anaga ega bo‘lib, hududda maxsus qorako‘l zotli qo‘ylar yetishtiriladi. Bundan tashqari, viloyatda qorako‘l terisini qayta ishlash va eksport qilish yo‘nalishida ham sezilarli rivojlanish kuzatilmoqda.

Navoiy viloyatida esa 2023-yilda 319,1 ming dona qorako‘l terisi olingan. Bu ko‘rsatkich Buxoro viloyatiga nisbatan kamroq bo‘lsa-da, Navoiy viloyati ham qorako‘lchilik sohasida muhim o‘ringa ega. Viloyatda chorvachilik izchil rivojlanib borayotgan bo‘lib, qorako‘l qo‘ylarini yetishtirish bo‘yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ushbu ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra, Buxoro viloyatida qorako‘l terisi ishlab chiqarish hajmi Navoiy viloyatiga qaraganda yuqoriroq ekani aniqlanadi. Buning asosiy sabablari orasida Buxorodagi uzoq yillik qorako‘lchilik an‘analari, iqlim sharoitining mosligi va ushbu sohada ilg‘or texnologiyalarning keng joriy etilishi mavjud. Navoiy viloyatida esa chorvachilik hamda qorako‘lchilik sohalari izchil rivojlanmoqda va kelgusi yillarda bu ko‘rsatkichlarning oshishi kutilmoqda.

Buxoro viloyati qorako‘l terisi ishlab chiqarishda yetakchi mavqeni egallab turibdi. Shu bilan birga, Navoiy viloyatida ham bu yo‘nalishda barqaror o‘shish kuzatilmoqda. Ushbu hududlarda qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish hamda fermer xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi (3-rasm).



3-rasm. O‘zbekiston hududlari bo‘yicha qorako‘l terilari ishlab chiqarish¹

¹ Manba: <https://siat.stat.uz/>

Bu xaritada O‘zbekiston hududlari bo‘yicha qorako‘l terilari ishlab chiqarish hajmi ranglar orqali tasniflangan.

Qizil rang (0–144,8 ming dona) – bu hududlarda qorako‘l terisi ishlab chiqarish hajmi eng past darajada. Buning sababi tabiiy sharoit, qorako‘lchilik an‘analarining sustligi yoki iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Sariq rang (145,8–289,6 ming dona) – ushbu hududlarda qorako‘l terisi ishlab chiqarish o‘rtacha darajada kechmoqda. Qorako‘lchilik rivojlangan bo‘lsa-da, yetakchi viloyatlarga nisbatan pastroq hajm kuzatilmoqda.

To‘q sariq rang (290,6–434,3 ming dona) – bu hududlarda qorako‘l terilari yetishtirish hajmi sezilarli darajada yuqori bo‘lib, iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Yashil rang (435,3–579,1 ming dona) – eng yuqori hajmda qorako‘l terisi ishlab chiqarilayotgan viloyatlar. Buxoro viloyati yashil rang bilan belgilangan bo‘lib, bu hududning qorako‘lchilik bo‘yicha yetakchi ekanini ko‘rsatadi.

Buxoro viloyati qorako‘l terisi ishlab chiqarishda yetakchi o‘rinda bo‘lib qolmoqda, Navoiy viloyati esa o‘rtacha darajada rivojlangan hudud sifatida ajralib turadi. Boshqa viloyatlarda qorako‘lchilik nisbatan kamroq rivojlangan, biroq bu sohaga investitsiyalar kiritilsa, ishlab chiqarish hajmini oshirish imkoniyati mavjud.

2024-yil 10-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev charm va ipak sanoatini rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda o‘tgan yili charm sanoatida ishlab chiqarish hajmi qariyb 3 trillion so‘mga yetganini, biroq ushbu hajmning yarmi Andijon va Farg‘ona viloyatlariga to‘g‘ri kelayotganini, teri xomashyosining ko‘pligi bilan ajralib turuvchi Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Jizzax, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida esa bu ko‘rsatkich pastligicha qolayotganini ta‘kidlagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda charm ishlab chiqarishni rivojlantirish katta salohiyatga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston terini qayta ishlash sohasida boy tabiiy resurslarga, mustahkam an‘analar va tajribaga, shuningdek, strategik geografik joylashuvga ega. Bu esa sohani rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Teri ishlab chiqarishni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlariga eksport yo‘llarini kengaytirish va yangi bozorlarni izlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza qayta ishlash usullaridan foydalanish, turli xil mahsulotlar va noyob brendlarni yaratish hamda ishchi kuchi malakasini oshirish kiradi.

O‘zbekistonda charm sanoatini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun innovatsion tadqiqotlarni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, shuningdek, ilmiy ishlanmalarga sarmoya kiritish zarur.

Teri sanoatini rivojlantirish bo‘yicha harakatlar rejasi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, xorijiy investitsiyalar va ilg‘or texnologiyalarni jalb etish, infratuzilma hamda logistika tizimlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu barcha omillarni inobatga olgan holda, O‘zbekistonda charm sanoati o‘sish va muvaffaqiyat uchun katta salohiyatga ega. Rivojlanish strategiyasini to‘g‘ri amalga

o'shinish, davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ushbu salohiyatni ro'yobga chiqarish hamda mamlakatda gullab-yashnayotgan charm sanoatini yaratishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Diego Navarro, Jianhui Wu, Wei Lin, Pere Fullana-i-Palmer and Rita Puig. Life cycle assessment and leather production. Navarro et al. Journal of Leather Science and Engineering (2020) 2:26 <https://doi.org/10.1186/s42825-020-00035-y>

2. Дубиновский Алексей Маркович. Стратегия Развития Предприятий Кожевенной Промышленности. Специальность 08 00 05 — Экономика и управление народным хозяйством (промышленность) автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Нижний Новгород 2006

3. Куликова Алевтина Валерьевна. Реформирование Предприятий Кожевенной Промышленности. Специальность 08.00.05 — Экономика и управление народным хозяйством (промышленность) АВТОРЕФЕРАТ диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Нижний Новгород 2004.

4. Коловай Андрей Владимирович. Методы Повышения Экономической Эффективности Кожевенно-Обувного Производства В Современных Рыночных Условиях. Специальность: 08.00.05 — Экономика и управление народным хозяйством (экономика, организация и управление предприятиями, отрасли и комплексами промышленности) Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Санкт-Петербург 2004.

5. Dr. K. Thiripurasundari and C. Ponsakthisurya, Future Prospects Of Indian Leather Industry. Journal Homepage: -www.journalijar.com Article DOI:10.21474/IJAR01/5498 DOI URL: <http://dx.doi.org/10.21474/IJAR01/5498> 2017. .Pp-1713-1717.

6. O'zbekiston respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Teri va teri mahsulotlar ishlab chiqarish sanoati. 2022. <https://www.toshstat.uz/uz/matbuot-markazi/news/7324-teri-va-teri-mahsulotlar-ishlab-chiqarish-sanoati>.

7. KM Matyakubovna, SF Kamolovna. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etishning imkoniyatlari va rivojlantirish istiqbollari. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4 (07), 214-221

8. MK Matyakubovna, I Ozodbek Corporate Culture And Leadership Styles: A Comparative Analysis Of Western And Eastern Management journal of multidisciplinary bulletin 8 (3), 126-133

9. QM Matyakubovna The Contemporary Trends In The Digitalization Of The Agricultural Sector And The Socio-Economic Sphere Science and innovation 3 (Special Issue 42), 156-160

10. Talabalarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari vositasida iqtisodiy ko'nikmalarni takomillashtirish yo'llari: Kadirova Maraljan Matyakubovna, Pedagogika fanlari bo'yicha ... M.M. Кадырова Образование и инновационные исследования международный научно-методический ...

11. <https://siat.stat.uz/>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhah:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, oktabr, 10-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**